

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|                                                                                                                                                  |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>A.M.Maxmutaliyev</b>                                                                                                                          |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kuch jismoniy sifati va uni tarbiyalash uslublari .....                                                       | 111 |
| <b>G.S.Sidiqova</b>                                                                                                                              |     |
| Hozirgi kun jismoniy madaniyat yo'riqchilarining klassifikatsiyasi .....                                                                         | 118 |
| <b>X.X.Xaydaraliyev</b>                                                                                                                          |     |
| O'quv mashg'ulotlari davomida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillshatirish .....                       | 123 |
| <b>R.A.Hamroqulov</b>                                                                                                                            |     |
| Salomatlik testi talab va me'yorlarini topshirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkillash .....                                                     | 128 |
| <b>E.I.Allomov</b>                                                                                                                               |     |
| Maktab o'quvchilari harakat faoliyatining yoshga xos me'yorlari .....                                                                            | 134 |
| <b>T.A.Eshimov</b>                                                                                                                               |     |
| Kasb - hunar maktablari o'quvchilarining jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari tahlili .....                            | 141 |
| <b>Sh.M.Robilova</b>                                                                                                                             |     |
| O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligi .....                                                                                 | 147 |
| <b>Q.M.Xakimov</b>                                                                                                                               |     |
| Yosh voleybolchilarda jismoniy ish qobiliyati va uning funksional komponentlarini shakllantirish masalalari .....                                | 150 |
| <b>Sh.V.Djalalov</b>                                                                                                                             |     |
| O'rta yoshdagi qizlarda egiluvchanlikni rivojlantirish metodikasi (5–9-sinflar) jismoniy tayyorgarlikning tabaqalashtirilgan tizim asosida ..... | 155 |
| <b>X.M.Sotvaldiyeva</b>                                                                                                                          |     |
| Ingliz tili darslarida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish usullari .....                                                                 | 159 |
| <b>S.I.Quziyev</b>                                                                                                                               |     |
| Ingliz tilini o'qitishda smart ta'lim texnologiyalari orqali virtual turizmni takomillashtirishning pedagogik usullari .....                     | 162 |
| <b>N.K.Ergasheva</b>                                                                                                                             |     |
| Methodology and outcomes of english language teaching .....                                                                                      | 168 |
| <b>M.Axmedova</b>                                                                                                                                |     |
| Maxsus yo'nalish talabalarining eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishda autentik materiallarning roli .....                                     | 172 |
| <b>G.Astonova</b>                                                                                                                                |     |
| Germaniyada ta'lim tizimini boshqarishning hududiy xususiyatlari .....                                                                           | 176 |
| <b>G.R.Astonova, M.M.Kaharova</b>                                                                                                                |     |
| Germaniya va O'zbekiston ta'lim tizimida o'xshash va farqli jihatlar .....                                                                       | 179 |
| <b>N.A.Abduvaliyeva, U.Sh.Abduvoxidova</b>                                                                                                       |     |
| Nutq o'stirishning metodik usullari .....                                                                                                        | 183 |
| <b>M.S.Ro'ziboyeva</b>                                                                                                                           |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bag'rikenglik dunyoqarashini tarbiyalash: nazariy va amaliy yondashuvlar .....                                  | 188 |
| <b>N.N.Nabiyeva</b>                                                                                                                              |     |
| Triz texnologiyasi vositasida ta'lim oluvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish mazmun va mohiyati .....                                   | 193 |
| <b>D.I.Asqarova</b>                                                                                                                              |     |
| Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar yangicha yondashuvlar .....                                                                                    | 197 |
| <b>D.T.Yuldasheva</b>                                                                                                                            |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv faoliyatini rivojlantirishda neyropedagogikaning imkoniyatlari .....                                       | 202 |
| <b>Y.A.Mirzaboyev</b>                                                                                                                            |     |
| Nostandart masalalar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida matematik kompetentlikni rivojlantirish metodikasi .....                 | 206 |
| <b>R.Sh.Sharofutdinova</b>                                                                                                                       |     |
| Ko'zi ojiz o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik, ijtimoiy xususiyatlari .....                            | 210 |



UO'K: 372.881.811.111

**INGLIZ TILI DARSLARIDA OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH  
USULLARI****МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ УСТНОЙ РЕЧИ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО  
ЯЗЫКА****METHODS FOR DEVELOPING ORAL SPEECH SKILLS IN ENGLISH LANGUAGE  
LESSONS****Sotvaldiyeva Xilola Musinovna**   
Farg'ona davlat universiteti, dotsent**Annotatsiya**

Mazkur maqola og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoniga bag'ishlangan bo'lib, tinglash, talaffuz, gapirish va nutqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan yondashuvlarni ko'rib chiqadi. Mazmuda til o'rgatish metodikasi, interaktiv mashg'ulotlar, rolli o'yinlar va multimedia vositalaridan foydalanish orqali og'zaki muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari tahlil qilingan. Ushbu yondashuv o'quvchilarning chet tillarida muloqot qilish ko'nikmalarini mustahkamlash va ularga erkin nutq madaniyatini shakllantirishda yordam beradi. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, o'qituvchining innovatsion yondashuvlari va individual ish usullari samaradorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ingliz tili darslarida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish til o'rganish jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Bu jarayon o'quvchilarning muloqot qobiliyatini rivojlantirish va ularni erkin so'zlashga tayyorlashga qaratilgan. Rolli o'yinlar, munozaralar va media vositalardan foydalanish kabi metodlar samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, interaktiv ta'lim va axborot texnologiyalari kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Bu metodlar talabalarning til o'rganishga qiziqishini oshirib, ularning muloqotga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

**Аннотация**

Данная статья посвящена развитию навыков устной речи, включая слушание, произношение, говорение и формирование речевой культуры. Рассматриваются подходы, направленные на использование интерактивных занятий, ролевых игр и мультимедийных средств в обучении языкам. В статье анализируются пути развития коммуникативных способностей учащихся и формирования у них свободной речевой культуры на изучаемом языке. Результаты исследования показывают, что инновационные подходы преподавателя и индивидуальные методы работы оказывают значительное влияние на эффективность обучения.

Развитие устной речи на уроках английского языка является важной задачей в обучении иностранному языку, направленной на формирование коммуникативной компетенции учащихся. Эффективные методы, такие как ролевые игры, дебаты, диалоги и использование мультимедийных средств, помогают учащимся преодолеть языковой барьер и улучшить навыки общения. Современные подходы к развитию устной речи способствуют повышению уверенности учащихся в использовании языка в реальных жизненных ситуациях и позволяют достичь более высокого уровня владения английским языком.

**Annotation**

This article focuses on the development of oral speech skills, including listening, pronunciation, speaking, and the cultivation of speech culture. It explores approaches to enhancing communicative abilities through interactive activities, role-playing, and multimedia tools in language teaching. The study analyzes methods for strengthening learners' ability to communicate freely and confidently in their target language. Research findings indicate that teachers' innovative approaches and personalized techniques play a significant role in improving the effectiveness of oral skill development.

Improving oral speech in English classes is a crucial aspect of language acquisition, focusing on developing students' speaking skills and enhancing their communicative competence. This process involves the use of various teaching methods such as role-plays, debates, and collaborative tasks, which engage students in authentic communication. Effective strategies for improving oral skills also include utilizing multimedia resources and creating an interactive learning environment. The integration of these methods not only boosts students' confidence in speaking but also enhances their overall language proficiency, making them more adept in real-life communication situations.

**Kalit so'zlar:** og'zaki nutq rivojlanishi, ingliz tili darsi, kommunikativ kompetensiya, rolli o'yinlar, interaktiv ta'lim, media vositalar, til ko'nikmalari, til bilish

**Ключевые слова:** развитие устной речи, уроки английского языка, коммуникативная компетенция, ролевые игры, мультимедийные средства, навыки общения, язык

**Key words:** Oral speech development, English classes, communicative competence, role-plays, multimedia resources, interactive learning, speaking skills, language proficiency

### KIRISH

Hozirgi davrda chet tillarini o'qitish jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Til o'rganish jarayonida og'zaki nutq nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki o'rganuvchining fikrlash darajasini namoyon etuvchi asosiy ko'rsatkich hamdir. Shu sababli, pedagogik jarayonda tinglash, gapirish, talaffuz va leksik-sintaktik jihatlarni o'z ichiga olgan og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirish alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu mavzu zamonaviy til o'rgatish metodikasi va ta'lim texnologiyalari asosida og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha innovatsion yondashuvlarni ko'rib chiqishni maqsad qiladi.

Ingliz tili darslarida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish nafaqat til tushunishni yaxshilaydi, balki o'quvchilarning turli mavzularda erkin muloqot qilish qobiliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Nutq rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta'lim jarayonining asosiy qismiga aylandi. Bu jarayonning asosiy maqsadi talabalarga hayotiy va ijtimoiy vaziyatlarda ingliz tilida muloqot qilish imkoniyatini yaratishdir. Innovatsion va interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning og'zaki faoligi va til kompetensiyasini oshirish asosiy vazifa sifatida belgilangan.

### ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLAR

Og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar juda keng qamrovli bo'lib, turli mualliflar bu mavzuda nazariy va amaliy yondashuvlarni taklif etishgan. Ma'lumotli tadqiqotchi H. D. Braun o'zining Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy asarida interaktiv ta'limning talablarning muloqot qobiliyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Braun fikriga ko'ra, rolli o'yinlar va munozaralar o'quvchilarni faol nutq jarayoniga jalb qiladi.

Jeremi Xarmer o'zining The Practice of English Language Teaching asarida og'zaki nutq rivojlanishi uchun vazifaga asoslangan (Task-Based Learning) yondashuvni taklif etadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning kundalik hayotga bog'liq vazifalarni bajarish orqali nutq ko'nikmalarini mustahkamlashini ko'rsatadi. Shuningdek, media vositalardan foydalanish tilni asl manbalardan o'rganishni osonlashtirib, tinglash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi (Nation & Newton, Teaching ESL/EFL Listening and Speaking).

#### Og'zaki nutq rivojlantirishdagi metodlar:

##### 1. Rolli o'yinlar

Rolli o'yinlar talablarning ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirib, ularni turli vaziyatlarda o'zini tutishga o'rgatadi. Bunday mashqlar talaba va mutaxassis (masalan, shifokor-bemor yoki xaridor-sotuvchi) o'rtasidagi muloqotni simulyatsiya qilish imkonini beradi.

##### 2. Munozaralar

Munozaralar talablarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, ularni turli nuqtai nazarlarni tahlil qilishga o'rgatadi. Munozaralar orqali talablar o'z fikrlarini erkin va mantiqiy tarzda bayon qilish ko'nikmasini rivojlantiradilar.

##### 3. Media vositalardan foydalanish

Filmlar, videoroliklar va podkastlar orqali talablar turli aksentlar va madaniyatlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu metod nutqni tushunish va erkin muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantiradi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

##### 4. Kitob o'qish va muhokama

Bu metod talablarning tanqidiy fikrlash qobiliyati va nutqiy faoligini rivojlantiradi. Kitob yoki hikoyalar o'qib, ularni muhokama qilish talablarning lug'aviy boyligini oshiradi va fikrlarni erkin ifoda etish imkoniyatini yaratadi.

### NATIJALAR VA MUXOKAMA

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar, ayniqsa, rolli o'yinlar va munozaralar, og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu metodlar talablarning tilga ishonchini mustahkamlab, ularni har qanday vaziyatda tilni qo'llashga tayyorlaydi.

Talabalar o'rtasida olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, media vositalardan muntazam foydalanish tinglash va tushunish ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

### XULOSA

Og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish til o'rganuvchilarning muloqot qobiliyatlarini mustahkamlash, madaniy farqlarni o'zlashtirish va chet tillarini real hayotda qo'llay olish salohiyatini

## PEDAGOGIKA

oshirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun interaktiv mashg'ulotlar, rolli o'yinlar, debatlar va multimediya vositalaridan samarali foydalanish lozim. Shuningdek, o'qituvchining metodik mahorati va individual yondashuvi bu borada hal qiluvchi rol o'ynaydi. Natijada, til o'rgatuvchi o'quvchilarning muloqotga tayyorligini oshirish, ular orasida ishonchni mustahkamlash va mustaqil o'rganishga rag'batlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ingliz tili darslarida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish nafaqat til bilimlarini yaxshilash, balki talabalarning ijtimoiy va intellektual rivojlanishi uchun ham zarurdir. Maqolada keltirilgan metodlar zamonaviy texnologiyalar va interaktiv yondashuvlarning talabalarning nutqiy faolligiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Kelgusida interaktiv va mediaviy metodlarni kengroq qo'llash orqali yanada yuqori natijalarga erishish mumkin.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brown, H. Douglas. "Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy". Longman, 2001.
2. Harmer, Jeremy. "The Practice of English Language Teaching". Pearson Longman, 2007.
3. Nation, I.S.P. & Newton, J. "Teaching ESL/EFL Listening and Speaking". Routledge, 2009.
4. Nunan, David. "Task-Based Language Teaching". Cambridge University Press, 2004.
5. Richards, Jack C., and Rodgers, Theodore S. "Approaches and Methods in Language Teaching". Cambridge University Press, 2014.
6. Sotvaldieva, H. M. (2021). Using proverbs as A lead-In activity in teaching english as A Foreign Language. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(11), 159-163.
7. Sotvaldieva, H. M. (2020). ENGLISH PROVERBS AS A MEANS OF EXPRESSING PEOPLE'S WISDOM, SPIRIT AND NATIONAL MENTALITY. *Theoretical & Applied Science*, (2), 601-604.